



Received: January 2, 2025  
Accepted: February 20, 2025  
Available online: February 25, 2025

## Shalola Davletova

Tayanch doktorant  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## Shalola Davletova

PhD Student  
Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek  
Language and Literature  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: shaloladavletova96@gmail.com  
ORCID iD: 0009-000-0657-1713

### XORXE LUIS BORXES ASARLARIDAGI RAMZIY TASVIRLARNING ILMIY TALQINLARI

#### ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan maqsad – yozuvchi, shoir va tanqidchi X.L. Borxes asarlaridagi obrazlar sistemasini o'rganish va tahlil qilish asnosida muallif hikoyalaridagi ramziylik va uning badiiy funksiyalarini aniqlashdan iborat. Badiiy obraz va obrazlilik adabiyotshunoslikdagi markaziy masalalardan hisoblanadi. Maqolada belgilangan vazifalar – yozuvchi hikoyalaridagi yetakchi badiiy obrazlarni tadqiq etish; ramziylik orqali ifodalangan ma'noni yozuvchi badiiy maqsadiga asoslangan holda tahlil qilish.

Maqolada sotsiologik, tarixiy-madaniy, qiyosiy va qisman biografik, psixologik, psixoanalitik, ijodiy-genetik metodlaridan foydalanildi va ular vositasida yuqoridagi vazifalar muayyan darajada amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, X.L. Borxes asarlaridagi ramziylik asosan cheksizlik, mavhumlik inson umri va hayot mazmuni singari falsafiy tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan deyish mumkin. Falsafiy qarashlar va ruhoniyat tasviri yozuvchi asarlarida muhim o'rin tutadi va u inson umri davomida faqat izlanishi, eng to'g'ri yo'l qaysi ekanligini topishi kerak, degan g'oyani ilgari suradi.

X.L. Borxes asarlaridagi personajlarning haqiqatni izlash yo'lidagi mashaqqatlari va chigalliklar o'quvchini tafakkur qilishga, hayot mazmunini tushunish uchun harakat qilishga undaydi. Avangardizm, fusunkor realizmning go'zal namunalari uchratish mumkin bo'lgan yozuvchining ijodi juda serqirra. Falsafiy ruh ustunlik qilgan X.L. Borxes hikoyalari

### SCIENTIFIC INTERPRETATIONS OF SYMBOLIC IMAGERY IN THE WORKS OF JORGE LUIS BORGES

#### ABSTRACT

This article aims to examine the system of objects in the works of the Argentine short-story writer, poet, and critic J.L. Borges, with the objective of elucidating the symbolism within his narratives and its role in the realm of fiction. Fiction is a pivotal concept in literary criticism. The objectives of this article include an exploration of the primary literary objects in J.L. Borges's stories and an analysis of the symbolism's significance, grounded in the author's artistic intent.

The article addresses these objectives through the application of sociological, historical, cultural, comparative, and, to some extent, biographical, psychological, psychoanalytical, and creative-genetic methodologies. The findings of the study suggest that the symbolism in J.L. Borges's works predominantly serves to convey philosophical concepts such as infinity, abstraction, human existence, and the essence of life.

Philosophical and spiritual perspectives propose that individuals should continuously seek and discern the most appropriate path throughout their lives. J.L. Borges's works resonate with the harmonious blend of avant-garde and fusunistic realism. Guided by a philosophical ethos, the protagonists in J.L. Borges's stories pursue a higher truth. In this pursuit, he intricately entangles his literary characters in both tangible and psychological labyrinths.

An individual who successfully navigates these labyrinths gains an understanding of life's meaning. In essence, the meticulous preparation of foresight is essential for unraveling the

qahramonlari oliy haqiqatga qarab intiladi. Bu yoʻlda u personajlarini goh hayotiy, goh ruhoniyat labirintlarida adashtiradi.

Labirintdan chiqqan inson esa hayot mazmunini anglab yetadi. Kitobxonni chin maʼnoda chuqur oʻyga toldiradigan simbolik obrazlar undan zukkolikni, oʻtkir qalb koʻzini talab qiladi. Boshqacha aytganda, oldindan koʻrilgan puxta tayyorgarlik hikoyalardagi metaforik zanjirlarni yechish uchun juda muhim. X.L. Borxes asarlari va hanuz muhokamalarga sabab boʻlayotgan, har bir tanqidchi sharhida turli izohlarga ega boʻlgan metaforik obrazlar asosan, umumiy ikki narsa – cheksizlik va oʻzlik tushunchalari bilan izohlanishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zero, bu cheksiz olamda avlodlar almashaveradi, inson esa oʻz taqdiri qarshisida hamisha oʻz va notavondir.

**Kalit soʻzlar:** avangardizm, badiiy obraz, simbolika, cheksizlik, raqamlar, labirint, oʻlim, hikoya, sonet, shaxmat oʻyini.

## KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida soʻnggi yillarda Lotin Amerikasi adabiyotiga qiziqish ortib bormoqda, bunda, albatta, X.L. Borxes (1899 – 1986) asarlari alohida tahsinga loyiq. X.L. Borxes ijodiga qiziqish yozuvchining ijod olamiga kirib kelganidan ancha vaqt oʻtib, asarlari fransuz tiliga tarjima qilinganidan (1961) soʻnggina boshlangan. Ushbu adabiyotga qiziqishning yana bir izohi shundaki, Lotin Amerikasi yozuvchilari G.G. Markes va P.Neruda adabiyot boʻyicha Nobel mukofotini qoʻlga kiritdilar, bu esa, oʻz navbatida, Lotin Amerikasi adabiy asarlariga adabiyotshunoslar eʼtiborini qaratdi. Biroq buning boshqa sabablari ham yoʻq emas edi. Ulardan biri – koʻplab Lotin Amerikasi asarlari ingliz tiliga tarjima qilingani va bu tilning yaqin yillarda ommalashib ketishi natijasida juda koʻp tanqidiy asarlar yaratila boshlanganidir.

Bu adabiyotning kuchli vakillaridan biri X.L. Borxes ham dunyo xalqlari kitobxonlari qalbiga shu tarzda kirib bordi. Simvolizm yozuvchi ijodidagi markaziy tushunchalardan biri boʻlib, bu oqim adabiyot tanqidchilari orasidagi eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Amerikada X.L. Borxes asarlari parabolik (allegorik) deb nomlangan. Chunonchi, B.Belit yozuvchi asarlariga izohida allegoriyaga “qiyoslash, oʻxshatish, ertak timsolidagi oʻxshatish, ramziy maʼnoga ega boʻlgan syujetni anglatuvchi fantastika” [Belitt, 1972] deya taʼrif beradi. D.Quronov, Z.Mamajonov va M.Sheraliyeva muallifligida yozilgan “Adabiyotshunoslik lugʻati”da mazkur tushuncha “mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan koʻchim turi” [Quronov va boshq., 2013; 25] sifatida talqin qilingan. Bunda allegorik obrazning tasvir plani bilan mazmun plani bir-biriga mos kelmasligi, yaʼni allegorik obrazda tasvirlanayotgan narsa oʻzini emas, aksincha, muallif koʻzda tutayotgan maʼnoni ifodalashi taʼkidlangan. Darhaqiqat, X.L. Borxes

metaphorical complexities within the stories. The conclusion drawn is that J.L. Borges’s works remain subjects of ongoing debate, with diverse interpretations in each critic’s analysis, primarily attributable to two common themes: the notions of infinity and fragility.

**Key words:** avant-garde, fiction, symbolism, infinity, figures, labyrinth, death, story, sonnet, chess game.

asarlari allegorik obrazlar ustiga qurilgan desak, aslo yanglishmagan bo'lamiz.

O'zbekistonda X.L. Borxes falsafasini o'rganish, yozuvchi hayoti va ijodiga bag'ishlangan maqola va tarjimalar XX asrning so'nggi choragida boshlandi. 2019-yilga kelib uning "Al-muhtasimga yaqinlashuv: hikoyalar" kitobi Sharifjon Ahmad tarjimasi bilan "Akademnashr" nashriyotida nashr qilindi. Yozuvchi ijodiga bag'ishlangan tarjimalar, kichik maqolalar topilishiga qaramay, katta hajmli tadqiqotlar yoki asarlar hanuzgacha yaratilmadi. Shunday bo'lsa ham, Nazar Eshonqul, Tal'at Solihov, Mahkam Mahmudov, Muhammadjon Xolbekov, Jabbor Eshonqulov, Olim Otaxon, Tursun Ali va Murod Chovush kabi ziyolilarning puxta talqinlarini kuzatish mumkin [Najmiddinov, 2024].

Dunyo adabiyotshunosligida X.L. Borxes shaxsini o'rganish va ijodi borasidagi munozaralarda "Borxes o'zi kim, yozuvchimi, shoirmi, faylasufmi, mutafakkirmi yoki kitoblardan olgan taassurotlarini shunchaki o'ta shaxsiy tarzda konspekt qilgan kishimi yoki adabiyotlarni bir-biriga sintez qilgan olimmi degan masalalar bir qo'zg'alib, bir o'chib turibdi" [Eshonqul, 2012]. Ayniqsa, yozuvchi hikoyalardagi simvolikaga bag'ishlangan maqola va risolalar ko'plab topiladi. K.Vilok, R.Alter, N.Mandlov, J.R. Makmerrey va boshqalar shular jumlasidandir.

Yozuvchi yaratgan simvolik obrazlarni ikki guruhga ajratib o'rganish orqali yozuvchi badiiy tafakkuri va maqsadini to'g'ri anglash mumkin: 1) kamdan-kam uchraydigan simvolik obrazlar; 2) labirint obrazi (labirint obrazi X.L. Borxesning bir nechta hikoyalarda takrorlanadi va shuning uchun ham G'arb tadqiqotlarida obraz deb talqin qilinadi).

### **TADQIQOT METODLARI**

Tadqiqot ishida X.L. Borxes hikoyalari semiotik tahlil (asardagi badiiy obrazlarga belgi sifatida qaragan holda ularning ma'no qirralarini ochib beruvchi tahlil) qilinib, bunda asosan sotsiologik, tarixiy-madaniy, qiyosiy va qisman biografik, psixologik, psixoanalitik, ijodiy-genetik metodlaridan unumli foydalanildi.

X.L. Borxes asarlaridagi obrazlar tizimi hamda badiiy unsurlarning ijtimoiy ildizlari sotsiologik tahlil metodi vositasida yoritib berildi. Yozuvchi hikoyalarni o'qir ekansiz, qahramonlarning boshi berk ko'chaga tushib qolishlari va undan chiqish yo'llarini izlashlari, chigallikni keltirib chiqargan omillar ayni shu metod orqali tahlil etiladi. Shuningdek, X.L. Borxes asarlaridagi g'oyaviy-mafkuraviy jihatlar, personajlarning xarakter xususiyatlari, asardagi turli konfliktlar tabiati analizida ham ayni metod yetakchi mavqe kasb etdi.

Ma'lumki, badiiy asar, muayyan madaniy-adabiy an'analar zaminida dunyoga keladi, uning badiiy xususiyatlari shu kontekstdagina yorqin namoyon bo'ladi. Tarixiy-madaniy tahlil metodi yordamida X.L. Borxes asarlari davr-madaniy kontekstida o'rganilib, hikoyalardagi simvolik obrazlarning milliy adabiy-madaniy kontekst bilan bog'liq ma'no qirralari ochib berishga harakat qilindi va shu orqali o'quvchilarda hikoyalarni katta vaqt o'lchamida idrok etish va ularga daxldorlik hissini paydo qilishlariga zamin yaratildi.

X.L. Borxes hikoyalardagi simvolik obrazlar turli adabiyotchilar tahlilida

turlicha izohlangan. Shuningdek, X.L. Borxes yaratgan ayni simvolik obrazlar unga zamondosh va boshqa ijodkorlar ijodida ham ishlatilgan. Shu kabi badiiy maqsadlarga yo'naltirilgan qiyosiy metod yordamida Borxesona obrazlar boshqa ijodkorlar ijodidagi obrazlarga qiyosan hamda yozuvchi hikoyalaridagi obrazlar tadqiqotiga bag'ishlangan tanqidiy-ilmiy maqolalar qiyoslanib, X.L. Borxes obrazlari ma'nosi xususida yanada aniq to'xtamga kelishga harakat qilindi. Tadqiqot ishida shuningdek, biografik metod, psixologik, psixoanalitik, ijodiy-genetik kabi metodlardan obrazli ifodalarni yozuvchi badiiy niyatini assotsiativ tarzda tahlil qilish uchun yordamchi usullar sifatida foydalanildi.

### **NATIJALAR VA MUNOZARA**

Mustaqillik yillarida yurtimizda X.L. Borxes shahsi va ijodini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Yurtimizda yozuvchi hikoyalaridagi obrazlar va ular orqali yetkazilishi nazarda tutilgan badiiy ma'no xususida izlanishlar olib borilmoqda. Bu boradagi puxta izlanishlardan biri yozuvchi N.Eshonqul qalamiga mansub. U X.L. Borxesga bag'ishlangan essesda uning ijodidagi yetakchi obrazlarni uch guruhga ajratadi: ko'zgu, niqob, tush. Odamning ko'zgusi uning o'zidir; agar odam o'zini o'z ichkarisidagi ko'zguga solsa, yuzidagi niqob yo'qoladi, sidirilib tushadi. Odam o'z yuziga, asli niqobiga qarab hamisha faxrlanib yuradi [Eshonqul, 2012], deb izoh beradi yozuvchi ushbu esseda. X.L. Borxes hikoyalari tarjimai bilan shug'ullangan Sh.Ahmedov ulardagi badiiy mazmun tashishga xizmat qilgan ramzlarni ko'zgular, kutubxona, adoqsizlik, bog', tushlar olami va labirint singari asosiy obrazlarga ajratadi [Ahmedov, 2015].

Yuqoridagi ta'riflar garchi X.L. Borxesning ko'plab asarlariga xos bo'lgan obrazlilik haqida so'z yuritsa-da, u yaratgan simvolik obrazlar mohiyati hali to'lig'icha ochib berilgan emas. Yozuvchi yaratgan simvolik orazlar tahliliga kirishishdan oldin ramz, obraz, simvolika kabi tushunchalarning asl izohi va mazmunini bilishga ehtiyoj tug'iladi. Ushbu tushunchalar badiiy adabiyotda matnni tahlil qilish bilan birgalikda uning tarkibiy qismi, shakl va g'oyasini bog'lab turuvchi muhim unsur sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ramz kategoriyasiga "Adabiyotshunoslik lug'ati"da simvol deb ta'rif beriladi. Shuningdek, uning faqat matn doirasidagina ko'chma ma'no kasb etishi hamda obrazlilik turi ekanligi ta'kidlanadi. V.Xarmon esa ramz kategoriyasiga alohida to'xtalar ekan, ramz o'zida asliga muvofiq va hissiy jihatlarni mavhum aspekt bilan birlashtirishini aytib o'tadi [Harmon, 2006]. Yuqoridagi ta'riflar bu tushunchalarning o'zaro chambarchas, badiiy matnda parallel holda tahlilga solinib, obrazlilik kasb etuvchi atamalar ekanligidan dalolat beradi.

X.L. Borxes ijodini juda katta dengizga o'xshatish mumkin. Unga sho'ng'igan g'avvos undan turli xil dur-u marvaridlar(obrazli ifodalar)ni topishi mumkin. Bu dengizdan birinchilardan bo'lib bahramand bo'lgan Yevropa va Amerika adabiyotshunoslari tomonidan X.L. Borxes obrazlari atrofficha talqin qilingan. Chunonchi, simvolizmga bag'ishlangan asarida R.Alter X.L. Borxes o'z o'quvchilarini "tasavvur kuchi va uning chegaralari" haqida xabardor qilish uchun simvolizmdan foydalangan degan fikrni ilgari suradi [Alter, 1972; 328]. K.Vilokning "Mifchi" ("The

Mythmaker”) kitobi, ehtimol, bu masala yuzasidan eng keng qamrovli tadqiqot bo‘lsa-da, hozirda jahon adabiyotshunosligida X.L. Borxes yaratgan ramzlar tadqiqotiga bag‘ishlangan asarlar soni ortib bormoqda.

Labirint X.L. Borxes ijodidagi eng mashhur simvol bo‘lsa-da, uning unchalik ko‘p tadqiq etilmagan simvolik obrazlari haqida ham bir qancha xorijiy maqolalar mavjud. X.L. Borxes asarlarini o‘rgangan Amerikalik J.R. Makmerrey Borxescha belgilarni juda samarali tarzda uch guruhga ajratadi: 1) tartibni bildiruvchi mavjud narsalar; 2) shaklsizlikni anglatuvchi mavjud bo‘lmagan narsalar yoki tartibsizlik; 3) noaniqlik holatini ifodalovchilar – bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish yoki o‘zgarish [McMurray, 1980]. N.B. Mandlovning yozishicha, X.L. Borxes “Ajedrez I” nomli sonetida, cheksizlik simvoli sifatida shaxmat o‘yinidan foydalanadi. Unga ko‘ra, X.L. Borxes shaxmatni “cheksiz” o‘yin, deb hisoblaydi va tartib, mantiq hamda chegaralanganlikni ifodalash uchun aynan shu obrazni tanlaydi. Shuningdek, u X.L. Borxes shaxmat o‘yini vositasida “tartibsizlik va tartibni yarashtirishga urinish”ga harakat qiladi deya ta’kidlaydi [Mandlove, 1980; 293]. O‘z xulosalariga tayangan holda, N.B. Mandlov shaxmat ikkining kvadrat ildiziga ega bo‘lgan to‘rt raqamiga asoslanganligi sababli, bu qarama-qarshiliklarni ramziy o‘yin, deb hisoblaydi. Shaxmat taxtasining ikkita rangi qora va oq diametral qarama-qarshidir, shuning uchun ular ham koinotning polemik (munozarali) tuzilishini ifodalaydi. Ushbu maqolada, N.B. Mandlov, shuningdek, an’anaviy sonetning shakli bo‘lmish “Ajedrez I”ning simvolik tuzilishiga ham ishora qiladi. Shaxmat taxtasi kabi sonet ham to‘rt raqamiga asoslangan, chunki u ikkilik va to‘rtliklardan tuzilgan shakldir. U yana X.L. Borxesning raqamlardan foydalangan holda “tartibga solish uchun betartiblik, irratsional kuchlarga qarshi mantiqiy tuzilmani ta’minlash, cheksizlikni cheklanish bilan qamrab olish, boshqarib bo‘lmaydiganni boshqarish” kabi noodatiy urinishlarini kuzatadi.

X.L. Borxes hikoyalaridagi badiiy ishoralarga ko‘ra ikkinchi va to‘rtinchi raqamlar tartibni anglatgan holda boshqa raqamlar turli tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, B.K. Goldning ta’kidlashicha, X.L. Borxes “muayyan raqamlarga maftun bo‘lgan” va u raqamlarning turli (ilohiy) xususiyatlariga ishonadi [Gold, 1981; 55]. B.K. Gold “Borxesning “Asterion uyi”dagi labirintlar” (“Labyrinths in Borges’ House of Asterion”) asarida X.L. Borxes o‘n to‘rt raqami vositasida cheksizlikni, to‘qqiz soni orqali esa chekli siklni ifodalashini aytadi. X.L. Borxesning raqamlardan noaniq tushunchalar simvolikasi sifatida foydalanishi M.Kapobiankoning “Xorxe Luis Borxesning fantastik asarlarida matematika” [Capobianco, 1982] maqolasida ham muhokama qilinadi. M.Kapobianko X.L.Borxesning “Tlon, Uqbar, Orbis Tertius” hikoyasidagi Tlon arifmetikasini tasvirlashda noaniq sonlar to‘plamidan foydalanganligini asoslab berdi. Bu tanqidchi, shuningdek, “Bobil kutubxonasi”dagi matematikani o‘rganib chiqadi va X.L. Borxes ushbu kutubxonadagi xonalar uchun olti burchakli burchaklardan foydalanganini ta’kidlab, bu orqali u badiiy ifodani kvadrat yoki to‘rtburchaklarga qaraganda ko‘proq kengaytirish imkoniga erishganini asoslab beradi.

Garchi X.L. Borxes asarlaridagi ranglar simvolik obrazlar sifatida talqin

qilingan maqolalar unchalik ko'p bo'lmasa-da, amerikalik J.R. Makmerrey va A.A. Natella singari tanqidchilar nazarida ular juda muhimdir. A.A. Natella X.L. Borxes asarlaridagi rang simvolikasiga bag'ishlangan ikkita maqola yozgan: "Xorxe Luis Borxes hikoyalaridagi simvolik kulrang" [Natella, 1972] va "Xorxe Luis Borxes hikoyalaridagi simvolik rang" [Natella, 1974]. J.R. Makmerrey esa "Xorxe Luis Borxes" asarida rang simvolikasini tahlil qiladi.

A.A. Natella "Xorxe Luis Borxes hikoyalaridagi simvolik kulrang" asarida kulrangni "abadiylik" timsoli [Natella, 1972] sifatida talqin qilsa, J.R. Makmerrey "kulrang mavjud emaslik ramzi, ammo ba'zida u o'limni bashorat qiladi, shuning uchun ham bu rang bir holatdan ikkinchi holatga o'tishni anglatadi" [McMurray, 1980] deydi. Kulrang oq va qora ranglardan hosil bo'lgani hamda "nafis" rangligi sababli uning shaffof rang emasligini ham qo'shimcha qiladi. Shuningdek, A.A. Natella X.L. Borxes asarlaridagi qizil rang ham abadiylikka ishora qilishini, ammo u kulrangdan "olovli aylana"ni anglatib, barcha tirik jozotlarga ishora qilishi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi [Natella, 1972]. J.R. Makmerrey qizil rang haqiqatdan ham jo'shqinlik timsoli bo'lgani uchun A.A. Natellaning bu rang haqidagi fikrlarini ma'qullaydi [McMurray, 1980].

X.L. Borxes asarlaridagi ayollar obrazi ham eng kam tahlil qilingan ramzlar sirasiga kiradi. P.Hyuzning "Mavhumlikdagi muhabbat: Borxes badiiy dunyosidagi ayollar obrazi" [Hughes, 1979] maqolasi ham yozuvchining ayollar haqidagi qarashlarini ochib beradi. Bu obraz X.L. Borxesning asarlarida juda kam uchashi sababli P.Hyuz uning ayollarni erkaklar bilan teng ko'rmagan, deb hisoblaydi. Tanqidchi ta'kidlaganidek X.L. Borxes asarlaridagi ayollar "aniq his-tuyg'uga ega bo'lmagan" obrazlardir. U yozuvchining asarlaridagi ayollarga o'lim hamda ojizlik timsollari deya ta'rif beradi. Bir vaqtning o'zida ayollar insoniyat umr charxpalagining cheksizligi timsoli vazifasini ham o'taydi. P.Hyuzning nazariyasi juda asosli tuyulsa-da, u ancha feministik ruhda ekanligi kundek ravshan.

Garchi yuqoridagi raqamlar, ranglar va ayollar singari obrazlar cheksizlik va mavhumlik singari tushunchalarni gavdalantirsa-da, X.L. Borxes ijodidagi ko'zgular badiiy yuk tashishda u yaratgan barcha obrazlardan mukammalroqdir. Borxesshunos K.Vilok "Mifchi" kitobida X.L. Borxesning ko'zgulardan simvol sifatida foydalangani haqida shunday yozadi: "Ko'zgu gipostatlarning qisqarishini ko'rsatish uchun ishlatiladi, gipostatizatsiya (mavhum tushunchalarga haqiqiy va mavjud tushuncha singari yondashish) aslini olganda shakl va X.L. Borxes ta'kidlaganidek har yerda mavjud, har bitta shakl yakka holatda. Bu maxsus shakllar hammasi hikoyalar yakunida yagona tushunchaga birlashadi" [Wheelock, 1969].

Biroq ko'zgudagi tasvir insonga (u ko'rayotgan tasvir butunlay o'zgacha bo'lsa ham) o'z aksini ko'rsatadi. Bu haqida yana bir borxesshunos tanqidchi X.L. Borxes asarlari bizning odatiy fikrlashimizga mutlaqo teskari bo'lgan puxta o'ylangan metaforalar yoki ko'zgular simvolikasi borasidagi eng yaxshi asarlardir deydi [Gordon, 1975]. Bu o'rinda o'quvchi nima real mavjudlik, nima shunchaki mavhum tasvir ekanligini ajratolmasa-da, yozuvchining aniq badiiy niyati o'quvchining aynan shu ikkilanish holatini boshdan kechirishini xoxlaganidir.

X.L. Borxes asarlaridagi “ko‘zgu” simbolikasiga bag‘ishlangan tanqidiy asarlardan yana biri N.Mandlovning “Shaxmat va ko‘zgular: Xorxe Luis Borxesning uchta sonetida metaforik shakl” maqolasidir. Bu maqolada u ko‘zgu – “insoniyatning abadiy ko‘payish hamda o‘limning takroriy zanjiri timsoli” deya izohlaydi. N.B. Mandlov ko‘zgular vaqtdan ustun keladi, chunki X.L. Borxes ulardan “inson tabiati to‘xtamay takrorlanishi, hamda bitta xarakter ham o‘tmish, ham kelajakda mavjud bo‘lishini ko‘rsatish uchun foydalanadi” deydi o‘z asarida [Mandlove, 1980; 289]. N.Mandlov X.L. Borxesning ba’zi she’rlarining shakli o‘z holicha ko‘zgu ekanligini, ular insoniyatning cheksiz va turli xil tajribalarini o‘zida aks ettirishini ham qo‘shimcha qilib o‘tadi.

D.V. Foster fikricha, ko‘zgu X.L. Borxes ijodidagi muhim obraz sanalsa-da, ularning bir nechtagi orqaligina cheksizlikni ifodalash mumkin. U o‘z maqolasida, jumladan, shunday deydi: “Birgina ko‘zguning cheksizlikni ifodalay olish ehtimoli juda kam, ammo bir nechta ko‘zgular yuzma-yuz va aks-sado bilan tasvirni tanib bo‘lmas darajada aks ettiradi va shuning uchun ham cheksizlikni ifodalay oladi” [Foster, 1962; 626].

### **Labirint obrazi simbolikasi**

Labirint termini X.L. Borxes ijodining ajralmas tarkibiy qismidir. Yozuvchining nazdida labirint “inson ichki olamining eng sirli va eng qadimiy tasvirlaridan biridir” [Murillo, 1959]. U aksariyat asarlarida labirint obrazining aynan o‘ziga murojaat qiladi yoki obyektning labirintsimon strukturasini yaratish orqali o‘z o‘quvchisini maftun qiladi. Kitobxonda o‘zi bilmagan holda katarsis jarayoni boshlanadi: personaj bilan birgalikda jumboqlarga javob izlay boshlaydi. Adabiy tanqidchilar orasida X.L. Borxes ijodining o‘zi labirint deydiganlari ham yo‘q emas. Shu asnoda, yozuvchining labirintlari adabiy tandiqchilar orasidagi eng munozarali mavzulardan biri hisoblanib, uni ham simbolik obraz, ham badiiy asar qurilishida shakl vositasi sifatida talqin qilib kelishmoqda. Misol uchun, borxeschilardan biri bu masalani shunday xulosalaydi: “Borxes labirintlarining simvol yoki motiv sifatida ahamiyati borasidagi qarashlar deyarli bir xil, ammo labirintning adib asarlaridagi mohiyati borasida yakdillik mavjud emas” [Isaacs, 1969; 384]. Labirint X.L. Borxes hikoyalaridagi juda ham muhim badiiy unsurdir, ammo labirint aslida nimani anglatadi? Bu savolga adabiy tanqid olamidan turlicha javob topamiz, demak, labirint yozuvchi ijodida juda serqirra, izohlab bo‘lmas darajada ulkan badiiylik kasb etgan obrazdir.

X.L. Borxes labirintlari aniq bitta ramziy ma’noga ega emasligiga qaramasdan, ko‘plab tanqidchilar uni inson ruhiyati sifatida izohlaydilar, chunki labirint geometrik shakl hisoblanib, bir vaqtning o‘zida insoniyatning o‘zi ularning tarkibida mavjudlik kasb etgan makon va zamon tushunchalarini qamrab oladi. “Borxes labirintlari haqidagi bitiklar” (“Notes on Borges’ Labyrinths”) maqolasida F.Dauster labirint “sirli tajriba”, chunki u zamon va makonning parallel aksi ekanligini ta’kidlaydi [Dauster, 1962; 143]. F.Dauster fikrini labirintning X.L. Borxes ijodidagi o‘rniga urg‘u berish bilan davom ettirar ekan, uni hayotga qiyoslaydi: “Labirintning markaziga yetib borganlar, ya’ni mavjudlikning ma’nosini tushunib yetganlar deyarli har doimo o‘limga mahkum” [Dauster, 1962; 147]. Haqiqatan, X.L. Borxes aksariyat asarlarining syujeti labirint

markaziga yetib borgandagina vaqt va makonning mohiyatini tushunib yetadigan qahramonlar bilan kechadi. Buning yaqqol isboti sifatida uning “O‘lim va bussol” hikoyasini keltirishimiz mumkin. Detektiv yo‘nalishda yozilgan mazkur hikoyaning bosh qahramoni Lyonnot sirli jinoyatning jumbog‘ini yechib labirintdan chiqqanida jinoyatchilar tomonidan o‘ldiriladi.

E.H. Redekopning zamondoshi F.Dausterning fikrlariga hamohang tarzda yozilgan “Labirintlar zamon va makonda” maqolasi labirintlarning “fazoviy cheksiz, vaqtinchalik, mantiqiy va psixologik shakllar” sifatidagi xususiyatlari to‘g‘risida bahs yuritadi [Redekop, 1980; 95]. Tanqidchining fikriga ko‘ra, X.L. Borxes “Bobil kutubxonasi” va “Barhayot” nomli hikoyalarida fazoviy tushunchalar vositasida insonning qo‘rquvi hamda tartibsiz hissiyotlarni aks ettiradi. Birinchi hikoyada ulkan kutubxona labirintga singari cheksiz va chalkashdek tuyuladi. Ikkinchi hikoyada esa, o‘lmas odamlar shahrining qurilishi juda chalkash, o‘zaro tutashib ketgan murakkab labirintni eslatadi. Yozuvchi insonlar umri davomida boshidan kechiradigan g‘ovlarni aynan shu metaforik obraz – labirint shaklida qurilgan shahar vositasida ifoda etadi. Ikkala hikoyada ham shahar va kutubxona obrazlari insoniyat ruhiyatida kechadigan chalkashliklarni ifodalovchi simvolik obrazlardir.

Bu obraz (labirint)ni kengroq tahlil qiladigan bo‘lsak, ba’zi tadqiqotchilar uni inson ruhiyatidanda kengroq tushunchalarni anglatishini ta’kidlaydilar: u butun borliqni ifodalovchi obraz. Bu talqinning yaxshi namunasi o‘laroq, G.E. Levaldning “Borxesning ikki hikoyasidagi labirint makoni va zamon” nomli maqolasidagi qarashlariga murojaat qilamiz. U labirintni “cheksizlik yoki noaniqlik xususiyatlariga ega bo‘lgan mantiqsiz olamning tartibsizligi va maqsadsizligini” [Lewald, 1962; 630] ifodalovchi geometrik shakl sifatida talqin qiladi. Bu ramz orqali X.L. Borxes borliqning muntazam harakatlanib turuvchi kuchlarini ifodalab, qahramonlarini noaniq yo‘nalishlarga tomon harakatlantiradi hamda ularning qarorlari borliqqa qanday ta’sir qilganini ko‘rsatib beradi.

Amerikaning Texas universiteti professori K.Vilok G.E. Levaldning “labirint borliqning timsoli” degan fikrini ma’qullaydi va o‘zining “Mifchi” asarida shunday yozadi: “u obyektiv borliq emas, balki inson ongidir” [Wheelock, 1969; 67]. Hayotni “buyuk labirint” deb nomlagan K.Vilok inson va borliq o‘rtasidagi ichki aloqaga ishora qiladi. Ya’ni, X.L. Borxes insonlarni ba’zan haqiqiy labirint ichida adashib qolgan, ba’zida esa o‘zi yaratgan murakkab ruhiy labirintlar ichida sarson obrazlar sifatida tasvirlaydi.

Kanadalik professor R.M. Filmus G.J. Vells X.L. Borxesning labirintlari universal vaqt simvolikasi sifatida angliyalik yozuvchining asarlaridagi labirint obrazi bilan qiyoslaganda vaqt borasida X.L. Borxes G.J. Vellsdan bir qadam oldinda degan fikrni ilgari suradi. Unga ko‘ra, X.L. Borxes G.J. Vellsning makon va zamon haqidagi qarashlariga qiziqish bilan qaragan. R.M. Filmus “Vells va Borxes hamda vaqt labirintlari” maqolasida X.L. Borxesning real borliqdagi vaqtinchalik tushunchalarini G.J. Vells asarlaridagi xuddi shunday tushunchalari bilan taqqoslaydi. Ikkala ijodkor ham asarlarida “davrlar osha sayohat” masalasini ko‘tarib chiqadi va “ideal hayotdagi vaqt tushunchasi inson ongidagi vaqt tushunchasiga zid yoki mos keladi va yoki bir-

birini to'ldiradi" [Philmus, 1974; 245]. X.L. Borxes hikoyalaridagi asosiy mavzulardan biri – borliqning tuzilishi tahlilida R.M. Filmus X.L. Borxes labirintlariga "yo'llar kesishgan bog'" deya ta'rif beradi, zero, ular "Xitoyning an'anaviy qutilari singari bir-birining ichiga o'rtnashib ketgan".

D.V. Foster X.L. Borxes labirintlarini "zamon, makon, va ong"ning "metafizik elementlar"i deya ta'riflaydi [Foster, 1962; 625]. Ungako'ra, labirintlar X.L. Borxesning "beshinchi o'lov – tabiatning bardavom mavjudlik charxpalagining mukammal sistemasi vaqt va makon chegarasidan ham o'tib ketadi" mazmunidagi qarashini aks ettiradi. X.L. Borxes labirintlari borasida asosli qarashlarga ega adabiyotshunoslardan biri P.Merivayl o'z maqolasida yozuvchi ijodidagi labirintlarni uch guruhga ajratadi: a) ochilmagan eshiklar to'plami; b) mavjud bo'lmagan labirintlar; d) "imkoniyat" labirintlari [Merivale, 1967].

Amerikalik J.R. Makmerrey labirintlarning ahamiyati va ular borasidagi mulohazalarga o'z fikrini bildirib, ular X.L. Borxes asarlarida "insoniyat dunyoga kelib duch keladigan va mohiyatini tushuna olmaydigan gneseologik va ontologik muammolarning simbolikasi" sifatida ishlatilganligini ta'kidlaydi. Tanqidchi, shuningdek, labirint ko'pincha X.L. Borxesning "noaniq sabab, g'urur yoki maqsad" yo'lidagi yozuvchining shaxsiyatini anglatuvchi vosita ekanligini ham qo'shimcha qilib o'tadi. Boshqacharoq aytganda, X.L. Borxes inson qanday qilib taqdir yo'lini yo'qotishi va sanoqsiz savollar, ya'ni mavhum borliq og'ushida qolishga mahkumligini tasvirlaydi. Umri davomida o'zini qiynagan falsafiy savollarga javob topishga uringan yozuvchi shu izohsiz mavhumlikni labirint obrazi va undan chiqishga intilayotgan insonlar sifatida aks ettiradi.

Ijodkorning labirintlarning falsafiy jihatlariga qizishi uning chigal (jumboqli) yozish uslubida ham yaqqol o'z aksini topadi. Amerikaning Vestern universiteti professori E.H. Redekop "Asteriy uyi" nomli hikoyasi Borxesona labirint usulida yozilgan hikoyaning ajoyib namunasi ekanligini bildiradi [Redekop, 1980]. Bu hikoya nafaqat labirint ichidagi mahbus, balki hikoyaning o'zi ham xuddi labirint singari o'quvchiga chalkashliklar tug'diradi. O'quvchini mahbusning shaxsiyati va hikoya mazmun-mohiyatini tushunish uchun tafakkur qilishga undaydi. E.H. Redekop X.L. Borxes hikoyasidagi bosh qahramonni "mahbus" deya nomlasa, yana bir tanqidchi V.S. Doksi X.L. Borxesning "Ot" ("Caballo") hikoyasidagi qahramonlarni "shaxmatchilar" deb ataydi. V.S. Doksi "Borxes ularni (qahramonlarni) bir joydan ikkinchi joyga harakatiga qarab emas, balki, ular to'xtagan ko'chalarning chorrahasini nomlash orqali joylashtiradi. X.L. Borxes Buenos Ayresning butun boshli katta hududidan shaxmat taxtasi yasaganga o'xshab tuyuladi" [Doxey, 1979; 549]. Labirintda faqat qahramonlargina emas, balki kitobxon ham adashib qoladi.

Labirint X.L. Borxesning deyarli barcha hikoyalarida metaforik yuk tashishga xizmat qiluvchi, yozuvchining badiiy niyatini yetkazishga xizmat qilgan mukammal obrazdir. Adib uni chin ma'noda oddiy geometrik shakldan falsafiy ma'no bilan to'yintirilgan vositaga aylantira oldi. "Labirint oshiqlari" maqolasida S.L. Veber X.L. Borxesning labirintsimon uslubiga quyidagicha ta'rif beradi: "Biz Borxesning murakkab yozish uslubini labirintning yer ostidagi chalkash yo'lakchali hayratomuz

mozaikadanda kengroq tushuncha ekanligini tushunib yetganimizdagina anglaymiz. X.L. Borxes labirinti aynan til hodisasidir” [Weber, 1982].

X.L. Borxes bu obraz orqali turli mantiqiy o'yinlar ishlab chiqadi. Uning ko'plab hikoyalarida shuni sezish mumkinki, labirint badiiy obrazdan adibning uslubiga ham ko'chib o'tadi. L.A. Murillo X.L. Borxesning uslubi ham simvolik, ham labirintsimon degan fikrni ilgari suradi. U bu fikrini shunday izohlaydi: “Yuza ostidagi tagma'no, turli sahnalar, voqealar rivoji – labirint orqali izchil bitta fikrni ilgari suradi” [Murillo, 1959; 259]. Bu tanqidchi labirint ramziga ta'rif berar ekan uni “labirintlar labirinti” deya ataydi. X.L. Borxesning labirintsimon uslubi insoniyat hayoti davomida boshidan kechirishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar timsolidir. Borxesshunos L.H. Rubman X.L. Borxes ijodida labirintlarning ishlatilish sababini boshqacharoq izohlaydi, ya'ni u yozuvchining badiiy niyati kitobxonlarni “tuzoqqa tushirish” va aynan shuning uchun labirintlardan foydalanilgan degan xulosaga keladi: “Real hayot ham, san'at ham (ayniqsa hayot va san'at aynan san'at asarida o'z ifodasini topganida) labirintsimondir. Labirintning tuzilishi faqatgina uni o'ylab topgan ijodkorga va uning mohiyatini tushinib yetishga harakat qilgangagina jumboq emas” [Rubman, 1973].

R.R. Uilson o'z izlanishlarida X.L. Borxes o'yinlar va labirintlardan badiiy strukturaviy vositalar sifatida foydalangan degan xulosaga keladi. U “Xudolar o'yini va Labirintlar: tuzoqqa tushirish logikasi” nomli maqolasida “labirint asarga noziklik, keng qamrov va hozirjavoblik, shuningdek, turli xil tuzilmaviy jumboqlar baxsh etadi, xullas, u illuziyaning va boshi berk ko'chaning birgalikdagi ajoyib ifodasi” [Wilson, 1982; 6]. S.Sontag, V.Nabokov, J.Fouls va X.L. Borxes singari ijodkorlarning labirintsimon uslublarini kuzatgan holda R.R. Uilson adabiyotda labirintlarni 2 guruhga ajratadi: “jismoniy qiyofaning illyuziyasi” va “tartibsiz yoki kuchli labirintlar” yoki ruhiy labirintlar. X.L. Borxes ikkala turdagi labirintlarni ham yaratibgina qolmay, ularni ushbu shakllarning barcha xususiyatlari bilan boyitadi.

X.L. Borxesning uslubiy labirintlari xususidagi yana bir maqola R.S. Kerrolning “Borxes va Bruno: “O'lim va bussol”da cheksizlik geometriyasi” (“Borges and Bruno: The geometry of infinity in *la Muerte y la Brújula*”) risolasidir. X.L. Borxesning labirintlardan foydalanish usulini uyg'onish davrining faylasufi J.Brunoning geometrik logikasi bilan qiyoslagan holda R.S. Kerrol X.L. Borxes J.Brunoning uchliklar, olmos shakli va labirintlar nazariyasidan ilhomlangan degan xulosaga keladi. U buni shunday izohlaydi: “Brunoning uchliklar, olmossimon shakl va labirintlar haqidagi g'oyasi ilk gnostik simbolizmning farqlanish va birlashish tushunchalariga o'z ta'sirini o'tkazdi” [Carroll, 1979; 324]. J.Bruno, shuningdek, borliqning cheksizligi labirintga o'xshashligiga ishonadi. R.S. Kerrol X.L. Borxesning “O'lim va bussol” hikoyasida qahramonlar real va ruhiy labirintlar bo'ylab qotillikning kalitini topish uchun harakatlanishlarini va jinoyatning uchlari olmos shaklida joylashtirilganini mohirona kashf qilganligini bunga misol sifatida ko'rsatib o'tadi. Albatta, kitobxon bu kalitlarni topish uchun ziyrak bo'lishi va jinoyatning kalitlari olmossimon shaklda ekanligini tushunib yetsagina hikoyaning mohiyati va ahamiyatini tushunib yetishini ham ta'kidlab o'tmoq joiz. R.Filmusning maqolasi bu borada R.S. Kerrolning maqolasidagi

qarashlarga hamohang va ikkala maqolada ham bu hikoyada olmos shaklining falsafiy ahamiyati haqida soʻz yuritiladi. R.Filmus jinoyat izlari “tetragrammaton – Xudoning yashirin ismini eslatuvchi kabalistik belgi” shaklida joylashtirilganligini keltirib oʻtadi [Philmus, 1974; 240].

B.K. Gold “Borxesning “Asterion uyi”dagi labirintlar” nomli risolasida X.L. Borxesning geometriya va matematikadan samarali foydalanganligini asoslab berdi. Unga koʻra, 14 va 9 raqamlari bu hikoyada takrorlanadi va Asterion uyi labirinti cheksizlik simvolidir. Bu tanqidchining fikriga koʻra insoniyat timsolini anglatuvchi personaj Asteriy 14 cheksiz raqam ekanligiga ishonadi va labirintdan chiqib olish uchun kishi labirintdagi barcha imkoniyatlardan foydalanishi zarur.

M.Kapobianko ham labirintni cheksizlik simvolikasi sifatida matematik jihatdan asoslashga harakat qiladi. U X.L. Borxesning “Bobil kutubxonasi”dagi raqamlardan foydalanishi “hikoyaning boshidan oxirigacha bu adabiy dunyo cheksizmi yoʻqmi degan savol turishi”ni taʼminlaydi [Capobianco, 1982; 53] degan fikrni ilgari suradi. Labirintdagi cheksizlik simvolikasi, shuningdek, K.Navarroning “Borxesning fantastikasida cheksizlik” (“Endlessness in Borges’ fiction”) nomli asarida muhokama qilinadi. K.Navarro labirint borliqning simvoli deydi, chunki u “anʼanaviy haqiqat singari cheksiz emas, ammo u barcha ehtimolli oʻlchamlarning konfiguratsiyasi(tashqi koʻrinishi)dir” [Navarro, 1973; 402]. Labirint cheksiz boʻlganligi sababli u “hamma narsani” ifodalaydi. Xullas, X.L. Borxes labirintlarini chuqur oʻrgangan holda uning badiiy niyati labirint obrazi orqali cheksizlikni va hamma narsani anglatish boʻlgan degan xulosaga kelish mumkin.

X.L. Borxes simvolizmi borasidagi tadqiqotlar ichida K.Vilokning “Mifchi” asari eng keng izlanish deyish mumkin. J.R. Makmerreyning “Xorxe Luis Borxes” (“Jorge Luis Borges”) asari ham ajoyib manba, chunki u X.L. Borxes simvollarini mohirona tarzda uch guruhga boʻladi. N.Mandlovning X.L. Borxesning shaxmat taxtasi, koʻzgular va sonnetlardan ramz sifatida foydalanganligi haqidagi maqolasi asosli maʼlumotlarga boy boʻlibgina qolmay, yozuvchidagi raqamlar simvolikasi uchun ham muhim manba hisoblanadi. B.K. Gold va M.Kapobiankoning maqolalari esa raqam simvolikasi xususida yanada chuqur mulohaza yuritilgan risolalardir.

A.A. Natellaning X.L. Borxes ijodidagi rang simvolikasi yuzasidan yozilgan tanqidiy fikrlarini boshqa maqolalarda uchratish qiyin, uning bu boradagi yondashuvini juda individual hamda asosli baholash mumkin. P.Hyuzning feministik ruhdagi maqolasi X.L. Borxes simvolizmida ayollar obraziga alohida ahamiyat berilgan kamdan-kam uchrovchi tanqidiy qarashlardan hisoblanadi, zero, adabiyotshunoslikda X.L. Borxes asarlaridagi ayollar obrazi muhim obraz sifatida qaralmaydi.

## XULOSA

Simvolizm X.L. Borxes asarlarining tarkibiy qismidir. U yozuvchi sifatida soʻz imkoniyatidan unumli foydalanib, voqeabozlikka oʻrganib qolgan oʻquvchini oʻz asarlari orqali tafakkur qilishga, obrazlar orqali aytilayotgan fikr va mulohazalarni anglashga majbur qiladi. Shunday qilib, adib asarlaridagi obrazlarni ikki – kam uchrovchi metaforik obrazlar hamda labirint kabi turlarga boʻlib oʻrganish asnosida

quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Shaxmat obrazi X.L. Borxes asarlarida cheksizlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, bu ramziy ifoda orqali yozuvchi aynan jamiyatdagi tartibsizliklarga qarshi kurash (shaxmatdagi oqlarning qoralarga, qoralarning oqlarga qarshi kurashi), boshqarish mushkul bo'lgan kuchlarni tartibga solishga urinishni aks ettirgan.

2. X.L. Borxesda raqamlar badiiy ifodani kuchaytirgan simvolik obrazlardan biri hisoblanadi, xususan, “o'n to'rt” raqami cheksizlik simvoli sifatida yozuvchi badiiy maqsadini ifodalagan.

3. Ranglar ham X.L. Borxes falsafiy qarashlaridagi cheksizlik, mavhumlik kabi tushunchalar ifodasi uchun ramziy ahamiyat kasb etgan. Yozuvchi “kulrang”, “qizil” kabi ranglarga ko'proq ko'chma ma'no yuklangan va tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylangan.

4. Inson ruhiyatidagi ojizlik timsoli sifatida X.L. Borxes ayollar obrazidan foydalangan degan qarash ham mavjud, ammo bu ehtimoldan ancha yiroq.

5. X.L. Borxes ijodidagi “ko'zgu” obrazi olamning cheksizligi, tug'ilish va o'lim halqasining to'xtovsizligi va shu kabi tubsiz falsafiy qarashlarning go'zal obrazli ifodasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

6. Labirint obrazi yozuvchi asarlaridagi faol shakl unsuri vazifasini bajargan vositalardan biri sifatida X.L. Borxes nazdida inson ichki olamining ifodasi bo'lish bilan birga butun olamni o'zida aks ettirgan obrazdir.

X.L. Borxes badiiy olamida simvolik ifodalardagi ko'chma ma'no ularning tildagi o'z ma'nosiga juda hamohang. Yozuvchining badiiy mahorati ham aynan ana shunda – u turli hodisa va narsalarning biz ko'ra olmagan jihatlariga badiiy yuk orta oldi, o'z falsafiy qarashlarini o'quvchiga singdirib, o'zini qiynagan savollar bilan o'quvchini mushohadaga chorlaydi. Zero, yozuvchi hikoyalari o'qilganida badiiy adabiyotning muhim vazifalaridan biri – ta'sir ko'rsatish va aloqa o'z ishini bajaradi, ong ostida uxlab yotgan jumboqlar qayta uyg'onadi. Ular yechimini topmasa-da, ularni qo'zg'alishiga sabab bo'lgan X.L. Borxes hikoyalari qayta va qayta o'qilaveradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov, Sh. (Tarj.). (2015-yil 11-oktabr). Xorxe Luis Borxes. Averroes izidan. *Xurshid Davron kutubxonasi*'da. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/xorxe-luis-borxes-averroes-izidan.html>.
2. Alter, R. (1972). Borges and Stevens: A note on post-symbolist writers. *TriQuarterly*, 25(Fall), 323–333.
3. Belitt, B. (1972). The enigmatic predicament: Some parables of Kafka and Borges. *TriQuarterly*, 25(Fall), 268–293.
4. Dauster, F. (1962). Notes on Borges' Labyrinths. *Hispanic Review*, 30, 142–148.
5. Doxey, W.S. (1979). Borges's “Caballo” labyrinth: The intricacy of beauty. *Journal of Modern Literature*, 7(3), 548–552.
6. Eshonqul, N. (2012-yil 29-mart). Borxes. *Xurshid Davron kutubxonasi*'da. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/nazar-eshonqul-borxes-esse.html>.
7. Foster, D.W. (1962). Borges and dis-reality: An introduction to his poetry. *Hispania*, 45(4), 625–629. <https://doi.org/10.2307/337341>.
8. Gold, B.K. (1981). Labyrinths in Borges' House of Asterion. *Helios*, 8(1), 49–59.
9. Gordon, A. (1975). A quiet betrayal: Some mirror work in Borges. *Texas Studies in*

*Literature and Language*, 17(1), 207–218.

10. Harmon, W. (2006). *A handbook to literature*. New Jersey: Pearson/Prentice Hall.
11. Hughes, P. (1979). Love in the abstract: The role of women in Borges' literary world. *Chasqui*, 8(3), 34–43.
12. Isaacs, N.D. (1969). The labyrinth of art in four ficciones of Jorge Luis Borges. *Studies in Short Fiction*, 6(1), 383–394.
13. Capobianco, M. (1982). Mathematics in the Ficciones of Jorge Luis Borges. *International Fiction Review*, 9(1), 51–54.
14. Carroll, R.C. (1979). Borges and Bruno: The geometry of infinity in la Muerte y la Brújula. *Modern Language Notes*, 94(2), 321–342. <https://doi.org/10.2307/2906749>.
15. Lewald, H.E. (1962). The labyrinth of time and place in two stories by Borges. *Hispania*, 45(4), 630–636. <https://doi.org/10.2307/337342>.
16. McMurray, G.R. (1980). *Jorge Luis Borges*. New York: Ungar.
17. Mandlove, N.B. (1980). Chess and mirrors: Form as metaphor in three sonnets of Jorge Luis Borges. *Kentucky Romance Quarterly*, 27(3), 289–298. <https://doi.org/10.1080/03648664.1980.9931036>.
18. Merivale, P. (1967). The flaunting of artifice in Vladimir Nabokov and Jorge Luis Borges. *Wisconsin Studies in Contemporary Literature*, 8(2), 294–309. <https://doi.org/10.2307/1207107>.
19. Murillo, L.A. (1959). The labyrinths of Jorge Luis Borges an introductory to the stories of the Aleph. *Modern Language Quarterly*, 20(3), 259–266. <https://doi.org/10.1215/00267929-20-3-259>.
20. Najmiddinov, T. (2024). Borxes va jahon adabiyotshunosligi. "ISFT" ilmiy-uslubiy jurnali, 2, 103–108.
21. Natella, A.A. (1972). Symbolic grey in the stories of jorge luis borges. *Romance Notes*, 14(2), 258–261.
22. Natella, A.A. (1974). Symbolic color in the stories of Jorge Luis Borges. *Journal of Spanish Studies: Twentieth Century*, 2(1), 39–48.
23. Navarro, C. (1973). The endlessness in Borges' fiction. *Modern Fiction Studies*, 19(3), 395–405.
24. Philmus, R.M. (1974). Wells and Borges and the labyrinth of time. *Science Fiction Studies*, 1(4), 237–248.
25. Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.
26. Redekop, E.H. (1980). Labyrinths in time and space. *Mosaic: A Journal for the Interdisciplinary Study of Literature*, 13(3/4), 95–113.
27. Rubman, L.H. (1973). Creatures and creators in "Lolita" and "Death and the compass". *Modern Fiction Studies*, 19(3), 433–452.
28. Weber, S.L. (1982). Jorge Luis Borges – lover of labyrinths: A heideggerian critique. In A.-T. Tymieniecka (Ed.), *The Philosophical Reflection of Man in Literature*. (pp. 203–211). Dordrecht: Springer. [https://doi.org/10.1007/978-94-009-7720-4\\_9](https://doi.org/10.1007/978-94-009-7720-4_9).
29. Wheelock, C. (1969). *The mythmaker: A study of motif and symbol in the short stories of Jorge Luis Borges*. Texas: University of Texas Press.
30. Wilson, R.R. (1982). Godgames and Labyrinths: The logic of entrapment. *Mosaic: A Journal for the Interdisciplinary Study of Literature*, 15(4), 1–22.

## REFERENCES

1. Ahmedov, Sh. (Trans.). (2015, October 11). Jorge Luis Borges. In search of Averroes. In *Khurshid Davron Library*. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/xorxe-luis-borxes-averroes-izidan.html>.
2. Alter, R. (1972). Borges and Stevens: A note on post-symbolist writers. *TriQuarterly*, 25(Fall), 323–333.

3. Belitt, B. (1972). The enigmatic predicament: Some parables of Kafka and Borges. *TriQuarterly*, 25(Fall), 268–293.
4. Capobianco, M. (1982). Mathematics in the Ficciones of Jorge Luis Borges. *International Fiction Review*, 9(1), 51–54.
5. Carroll, R.C. (1979). Borges and Bruno: The geometry of infinity in ‘Death and the compass’. *Modern Language Notes*, 94(2), 321–342. <https://doi.org/10.2307/2906749>.
6. Dauster, F. (1962). Notes on Borges’ Labyrinths. *Hispanic Review*, 30, 142–148.
7. Doxey, W.S. (1979). Borges’s “Caballo” labyrinth: The intricacy of beauty. *Journal of Modern Literature*, 7(3), 548–552.
8. Eshonqul, N. (2012, March 29). Borges. In *Khurshid Davron Library*. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/nazar-eshonqul-borxes-esse.html>.
9. Foster, D.W. (1962). Borges and dis-reality: An introduction to his poetry. *Hispania*, 45(4), 625–629. <https://doi.org/10.2307/337341>.
10. Gold, B.K. (1981). Labyrinths in Borges’ House of Asterion. *Helios*, 8(1), 49–59.
11. Gordon, A. (1975). A quiet betrayal: Some mirror work in Borges. *Texas Studies in Literature and Language*, 17(1), 207–218.
12. Harmon, W. (2006). *A handbook to literature*. New Jersey: Pearson/Prentice Hall.
13. Hughes, P. (1979). Love in the abstract: The role of women in Borges’ literary world. *Chasqui*, 8(3), 34–43.
14. Isaacs, N.D. (1969). The labyrinth of art in four ficciones of Jorge Luis Borges. *Studies in Short Fiction*, 6(1), 383–394.
15. Lewald, H.E. (1962). The labyrinth of time and place in two stories by Borges. *Hispania*, 45(4), 630–636. <https://doi.org/10.2307/337342>.
16. Mandlove, N.B. (1980). Chess and mirrors: Form as metaphor in three sonnets of Jorge Luis Borges. *Kentucky Romance Quarterly*, 27(3), 289–298. <https://doi.org/10.1080/03648664.1980.9931036>.
17. McMurray, G.R. (1980). *Jorge Luis Borges*. New York: Ungar.
18. Merivale, P. (1967). The flaunting of artifice in Vladimir Nabokov and Jorge Luis Borges. *Wisconsin Studies in Contemporary Literature*, 8(2), 294–309. <https://doi.org/10.2307/1207107>.
19. Murillo, L.A. (1959). The labyrinths of Jorge Luis Borges an introductory to the stories of the Aleph. *Modern Language Quarterly*, 20(3), 259–266. <https://doi.org/10.1215/00267929-20-3-259>.
20. Najmiddinov, T. (2024). Borges and world literary studies. *Scientific-Methodological Journal of ISFT*, 2, 103–108.
21. Natella, A.A. (1972). Symbolic grey in the stories of jorge luis borges. *Romance Notes*, 14(2), 258–261.
22. Natella, A.A. (1974). Symbolic color in the stories of Jorge Luis Borges. *Journal of Spanish Studies: Twentieth Century*, 2(1), 39–48.
23. Navarro, C. (1973). The endlessness in Borges’ fiction. *Modern Fiction Studies*, 19(3), 395–405.
24. Philmus, R.M. (1974). Wells and Borges and the labyrinth of time. *Science Fiction Studies*, 1(4), 237–248.
25. Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2013). *Dictionary of literary studies*. Tashkent: Akademnashr.
26. Redekop, E.H. (1980). Labyrinths in time and space. *Mosaic: A Journal for the Interdisciplinary Study of Literature*, 13(3/4), 95–113.
27. Rubman, L.H. (1973). Creatures and creators in “Lolita” and “Death and the compass”. *Modern Fiction Studies*, 19(3), 433–452.
28. Weber, S.L. (1982). Jorge Luis Borges – lover of labyrinths: A heideggerian critique. In A.-T. Tymieniecka (Ed.), *The Philosophical Reflection of Man in Literature*. (pp. 203–211). Dordrecht: Springer. [https://doi.org/10.1007/978-94-009-7720-4\\_9](https://doi.org/10.1007/978-94-009-7720-4_9).

29. Wheelock, C. (1969). *The mythmaker: A study of motif and symbol in the short stories of Jorge Luis Borges*. Texas: University of Texas Press.
30. Wilson, R.R. (1982). Godgames and Labyrinths: The logic of entrapment. *Mosaic: A Journal for the Interdisciplinary Study of Literature*, 15(4), 1–22.